

**Zadi Smiz “Oq Tishlari” romanidagi feminizmga tanqidiy qarash****Boltayeva Gulrux Erkin qizi**

Magistrant, Toshkent shahridagi Vebster

Universitetining ta’lim dasturlarini

amalga oshirish markazi

Annotatsiya: Ushbu ishda Zadi Smizning “Oq Tishlar” (2000) romanini tahlil qilish asosida zamonaviy jamiyatdagi zamonaviy Britaniya feminizmi ko’rinishlaridan biri bo’lmish “oq” ijtimoiy-madaniy qarashlar tizimi keskin tanqid qilinadi. Zadi Smiz (2000) roman orqali ayrim feministik yondashuvlarning ayollarni “ozod qilish” ni da’vo qilsa-da, ularni irqiy, etnik kelib chiqishiga ko’ra turlicha toifalarga bo’lib tashlashini ta’kidlaydi va bunday muammoli paradigmga asoslangan feminizmni tanqid qiladi. Ushbu feminizm asardagi Joyse Chalfen hamda Poppi Burt-Joneslar orqali satira vositasida tanqid qilinadi.

Kalit so’zlar: feminist, zamonaviy Britaniya feminizmi, mustamlakachilik, inklyuziv, irqiy, etnik kelib chiqish.

Аннотация: В данной работе резко критикуется «белая» социокультурная система современного общества, являющаяся одним из проявлений современного британского феминизма, посредством анализа романа Зэди Смит «Белые зубы» (2000). Зэди Смит (2000) в романе подчёркивает, что некоторые феминистские подходы, хотя и претендуют на «освобождение» женщин, делят их на различные категории по расовому и этническому признаку, и критикует феминизм, основанный



на этой проблемной парадигме. Этот феминизм критикуется через персонажей Джойс Чалфен и Поппи Берт-Джонс в произведении с использованием сатиры.

Ключевые слова: феминистка, современный британский феминизм, колониализм, инклюзивность, раса, этническая принадлежность.

Abstract: This work sharply criticizes the "white" socio-cultural system of the modern society, which is one of the manifestations of contemporary British feminism, through the analysis of Zadie Smith's novel of "White Teeth" (2000). Zadie Smith (2000) through the novel emphasizes that some feminist approaches, although they claim to "liberate" women, divide them into different categories based on racial and ethnic origin, and criticizes feminism based on such a problematic paradigm. This feminism is criticized through the characters of Joyce Chalfen and Poppy Burt-Jones in the work by using the satire.

Key words: feminist, contemporary British feminism, colonialism, inclusive, race, ethnicity.

Zadi Smiz “Oq Tishlar” romanidagi qahramonlar, jumladan, Joyse Chalfen hamda Poppi Burt-Joneslar orqali orqali zamonaviy Britaniya feminizmini o’ziga xos satira vositasida tanqid ostiga oladi.

Romandagi obraz – Joyse Chalfen o’zini qat’iy feminist sifatida ko’rsatishga urinadi. U o’zini Iri Jonesni “himoya qilish”, “asrash”, “yordam berish” ga harakat qilayotgandek ko’rsatadi, ammo aslida bu “yordam” haqiqiy, chin yordam emas (Klein, 2016), balki oq tanli feministlarning boshqa rangli, jumladan, qora tanlilarga nisbatan nazorat o’rnatishga intilishini, ya’ni mustamlakachilik ruhini o’zida aks ettiradi (Smiz, 2000).



Romanda Joyse Chalfen obrazidagi yashirin irqchilik pozitsiyasi ham tanqid ostiga olinadi. Moss (2008) ta’kidlaganidek, Joyse o’z asarlarida o’simliklar hamda insonlar orasidagi “gibridlashuv (hybridization)” - ya’ni, turli o’simlik yohud hayvonlar chatishtirilganda yangi, aralash nasl paydo bo’lishi – ni tar’gib qilsa-da, real hayotda boshqa millat, din, madaniyatdan bo’lgan ayollarning madaniy aralashuvi – migratsiya natijasida turli millat va din vakillarining bir joyda yashab, yangi, o’ziga xos madaniy shakl yaratishi – ga chiday olmaydi. Joyse Chalfenning yashirin irqchiligi qora tanli qiz Iri Chalfenlar bilan qo’shilib, “yangi avlod” ning bir bo’lagiga aylanishga harakat qiladi, ammo u qanchalik urinmasin, Joyse bu harakatlarni e’tiborsiz qoldiradi. Bu esa Smizning (2000) tanqidiy yondashuvini yanada kuchaytiradi: tashqi tomondan liberal hamda ochiq bo’lib ko’ringan feminizm, aslida mustamlakachilik merosini va irqiy ayirmachilikni o’zida aks ettiradi.

Smizning (2000) tanqidiy nigohi Poppi Burt-Jones obrazida ham namoyon bo’ladi. Poppi, maktab o’qituvchisi, o’zini tenglik tarafdori sifatida ko’rsatsa-da, Samad Iqbol bilan o’zaro muloqotda uning madaniy hamda geografik kelib chiqishiga hurmatsizlik bildiradi. Uning “men hind madaniyatiga juda qiziqaman” (Smiz, 2000) deyishi, shuningdek, Samadning “Men Hindistondan emasman, ..., men Bangladeshdanman” (Smiz, 2000) deya tuzatishiga qaramay, Samadning bu tuzatishini e’tiborsiz qoldirishi ushbu hurmatsizlikning yorqin misolidir. Bundan tashqari, yozuvchi Poppining ushbu munosabati orqali mustamlakachilik davridagi “Boshqa” shaxslarning individualligiga nisbatan bo’lgan e’tiborsizlik hamda hurmatsizlikni namoyon qiladi.

Shunday qilib, Zadi Smiz “Oq Tishlar” (2000) romani orqali zamonaviy ingliz feminizmining bir shaklini samarali tanqid qiladi va undagi mustamlakachilik ruhi hamda irqiy ayirmachilikka xos bo’lgan belgilarni fosh qiladi. Smiz (2000) asardagi Joyse Chalfen hamda Poppi Burt-Joneslarning o’ziga xos satirik portreti orqali haqiqiy, inklyuziv – jamiyatda, siyosatda, ta’limda tenglikni, teng huquqlilikni ta’minlash – xususiyatga ega bo’lgan jamoalarni yarata olmay, aksincha ayollarni irqiy va etnik kelib



chiqishiga ko’ra toifalarga ajratib, natijada ularning jamiyatda hamda shaxsiy hayotida beqarorlikni yuzaga keltiruvchi feminizmni keskin tanqid qiladi.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Klein, Candice E. (2016, April 10). *Glowing White Light: Zadie Smith’s White Teeth – A Critique of Contemporary British Feminism*. [Blog post]. Retrieved from https://candiceeklein.wordpress.com/2016/04/10/zadie-smiths-white-teeth-a-critique-of-contemporary-british-feminism-2/?utm_source=chatgpt.com
2. Moss, L. (2008). The Politics of Everyday Hybridity: Zadie Smith’s *White Teeth*. *Wasafiri*, 18(39), 11–17. <https://doi.org/10.1080/02690050308589837>
3. Smiz, Z. (2000). *Oq Tishlar*. London: Pingvin kitoblari (Penguin books).